



**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG'I**

2024-yil "13" 07 № 1-98/272

Qibray tumani

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirining 2024-yil
8-iyuldagi 178-son buyrug'i ijrosi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 14-noyabrda 3476-son bilan ro'yhatdan o'tkazilgan "Agrar sohadagi oliy ta'lim muassasalari qoshidagi akademik litseylarning bitiruvchilarini ushbu oliy ta'lim muassasalariga yakka tartibda suhbat o'tkazish orqali o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi nizom va Qishloq xo'jaligi vazirining 2024-yil 8-iyuldagi 178-son buyrug'i ijrosini ta'minlash hamda Toshkent davlat agrar universiteti qoshidagi Akademik litsey bitiruvchilariga universitet bakalavriatiga o'qishga kirish uchun yakka tartibdagi suhbat o'tkazish jarayonlarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. O'quv ishlari bo'yicha prorektor (Oblomuradov), Akademik registrator boshqarmasi boshlig'i (Kasimov) va Qabul komissiyasi mas'ul kotibi (Xalmirzayev)ga:

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirining 2024-yil 8-iyuldagi "Agrar sohadagi oliy ta'lim muassasalari qoshidagi akademik litseylarning bitiruvchilarini ushbu oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga qabul qilish bo'yicha yakka tartibda suhbat jarayonlarini tashkil etish hamda o'tkazish to'g'risida"gi 178-son buyrug'i va ushbu buyruq bilan tasdiqlangan Akademik litsey bitiruvchilarini oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga o'qishga qabul qilish uchun yakka tartibdagi Suhbat komissiya raisi va a'zolari ro'yxati ijro uchun qabul qilinsin.

Toshkent davlat agrar universiteti qoshidagi Akademik litsey (keyingi o'rinlarda-Akademik litsey) bitiruvchilarini universitet bakalavriatiga o'qishga qabul qilish uchun yakka tartibdagi Suhbat 2024-yilning 7-avgust kuni o'tkazilsin.

2. Qabul komissiyasi mas'ul kotibi D.Xalmirzayevga:

belgilangan tartibdagi tavsiyanomaga ega Akademik litsey bitiruvchilardan hujjatlarni joriy yilning 10-iyulidan 30-iyuliga qadar qabul qilish;

tavsiyanomaga ega Akademik litsey bitiruvchilaridan quyidagi hujjatlarni qabul qilish:

ariza (universitet birinchi prorektori nomga yozilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishi, ta'lim shakli va tili hamda yashash manzili to'liq ko'rsatilgan ariza);

fuqarolik pasporti, ID karta nusxasi yoki ichki ishlar bo'limlari tomonidan berilgan 09-shakl bo'yicha jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami, pasport seriyasi va raqami ko'rsatilgan ma'lumotnoma;

pasport yoshiga yetmaganlar uchun tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;

Akademik litseyni tugatganligi haqidagi hujjatning asl nusxasi (ilovasi bilan);

amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozga ega bo'lgan abituriyentlar imtiyoz huquqini tasdiqlovchi hujjat (asl nusxasi talab etiladigan hujjatlarning asl nusxasi taqdim etiladi, asli taqdim etilmaydigan hujjatlarning nusxasi).

fotosurat 3,5 x 4,5 o'lchamda 6 dona;

tavsiyanoma berilganligi to'g'risidagi buyruqdan ko'chirma.

Akademik litsey bitiruvchilarini o'qishga qabul qilish bo'yicha yakka tartibdagi suhbat o'tkaziladigan auditoriyalarni tashkil etish;

yakka tartibdagi Suhbat o'tkazish muddatlarini, aniq vaqti va joylarini ko'rsatgan holda universitetning internet va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida e'lon qilish va abituriyentlarga yetkazish;

Akademik litsey bitiruvchilariga amaliy yordam ko'rsatish hamda imtihonlarni o'tkazish jarayonida tartib-intizomni saqlash bo'yicha maslahatlar berish;

suhbat jarayonlarini "Agrar sohadagi oliy ta'lim muassasalari qoshidagi akademik litseylarning bitiruvchilarini ushbu oliy ta'lim muassasalariga yakka tartibda suhbat o'tkazish orqali o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomga qat'iy amal qilgan holda o'tkazish;

suhbat jarayonlarida abituriyentlarni baholashda qonuniylik, adolatlilik, xolislik tamoyillariga qat'iy rioya qilish;

yakka tartibdagi suhbat natijalari u o'tkazilgan kunning o'zida abituriyentlarga e'lon qilish;

Suhbat natijalariga ko'ra talabalikka tavsiya etilganlar to'g'risidagi ma'lumotlarni vazirlikka suhbat natijalari e'lon qilingan kundan keyin 3 (uch) kun muddatda yetkazish;

xizmat zaruriyati tufayli komissiya ishiga qo'shimcha mutaxassislarni jalb qilish vazifalari yuklatilsin.

3. Akademik litsey bitiruvchilariga universitet bakalavriatiga o'qishga qabul qilish uchun yakka tartibdagi Suhbat o'tkazish jarayonida natijalaridan noroziliklarini ko'rib chiqish va adolat mezonlarini saqlash bo'yicha apellyatsiya komissiyasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Apellyatsiya komissiyasiga:

suhbat natijalari e'lon qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida yozma yoki elektron shaklda shikoyat arizalarini qabul qilish;

apellyatsiya shikoyatini, u kelib tushgan kundan boshlab besh kun muddat ichida ko'rib chiqish;

apellyatsiya shikoyati bilan murojaat qilgan abituriyentni shikoyat ko'rib chiqilishidan ikki kun oldin uni ko'rib chiqish vaqti va joyi haqida ogohlantirish;

apellyatsiya shikoyati bilan murojaat qilgan abituriyentga apellyatsiya komissiyasi qarorini u qabul qilingan kunning o'zida ma'lum qilish;

shikoyat ariza muallifini xulosa bilan tanishtirish va asoslangan ma'lumotlar asosida tushuntirish;

xizmat zaruriyati tufayli komissiya ishiga qo'shimcha mutaxassislarni jalb qilish vazifalari yuklatilsin.

5. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor D.Mamadiyarov, Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i S.Rasulovga;

suhbat o'tkaziladigan auditoriyalarni ichimlik suvi, ruchka va boshqa vositalar bilan ta'minlash;

suhbat o'tkaziladigan binolarning mo'tadil haroratini saqlash;


suhbat jarayoni to'liq videokuzatuv ostida o'tkazilishini va suhbat jarayonini ota-onalar, kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga ovozli tarzda onlayn translyatsiya qilishni ta'minlash;

suhbat jarayoni to'liq va sifatli videokuzatuv ostida o'tkazilishini va videoyozuvlarning kamida 3 (uch) yil Universitetda saqlanishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirining 2024-yil 8-iyuldagi 178-sonli buyrug'i.

Birinchi prorektor



S. Islamov

Toshkent davlat agrar universiteti
rektorining 2024-yil 10-iyuldagi
198/2024-sonli buyrug'iga ilova

**Akademik litsey bitiruvchilariga universitet bakalavriatiga o'qishga qabul qilish
uchun yakka tartibdagi Suhbat o'tkazish jarayonida natijalaridan
noroziliklarini ko'rib chiqish va adolat mezonlarini
saqlash bo'yicha apellyatsiya komissiyasi
TARKIBI***

№	Komissiya a'zolarining F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
1	T.Azizxo'jayev	Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplaens-nazorat" tizimini boshqarish bo'lim boshlig'i – Apellyatsiya komissiyasi raisi
Komissiya a'zolari		
2	B.Komilov	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i
3	B.Xusenov	Yuridik bo'lim boshlig'i
4	U.Soatov	Universitet kasaba uyushma qo'mitasi raisi
5	D.Mustofakulov	Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i